

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

Ro'yxatga olindi:  
№ 308

2022 yil "28" or.



EKOLOGIK ME'YORLASH  
fanining

ISHCHI O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 600000 – Xizmatlar sohasi

Ta'lif sohasi: 630000 – Atrof muhit muhofazasi

Ta'lif yo'nalishi: 5630100 – Ekologiya va atrof muhit muhofazasi

Umumiy o'quv soati	-	56 soat
Shu jumladan:		
Ma'ruba	-	20 soat
Amaliy maxsulotlar	-	4 soat
Laboratoriya ishlari	-	
Mustaqil ta'lif soati	-	32 soat

Qarshi-2022 yil

Fanning ishchi o'quv dasturi Qarshii muhandislik-ijtisodiyot institutining  
2022 yil 26.08-soni tasdiqlangan o'quv reja va o'quv dasturiga  
muofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar:

Bopirov Z.R. "Ekologiya va mehnat muhofazasi"  
kafedrasl assistenti

Fanning ishchi o'quv dasturi "Ekologiya va mehnat muhofazasi" kafedrasi  
yig'ilishida (bayonnoma № 1, 26.08 2022 yil), "Geologiya va konchilik  
ishi" fakul'teti Uslubiy Komissiyasida (bayonnoma № 1, 26.08 2022 yil) va  
institut Uslubiy Kengashida (bayonnoma № 1, 26.08 2022 yil) muhokama  
etilg'an va o'quv jarayonida foydalanishga tavsya qilingan.


QMII O'quv- uslubiy boshqarma  
hoshlig'i:

QMII Geologiya va konchilik ishi  
uslubiy komissiya raisi:

"Ekologiya va mehnat muhofazasi"  
kafedrasi mudiri:



Sh.Turdiyev



M. Gofirov



R.A.Eshonqulov

## K I R I SH

“Ekologik me’yorlash” fanining o’zlashtirilishi talaba uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki hozirgi kunda aholi sonining oshib borishi, ishlab chiqarishni kengayishi, tabiiy resurslarni tejamkorlik bilan ishlatilmasligi chiqindilarni ko‘plab hosil bo‘lishiga va tabiiy muhitning yomonlashuviga olib kelayapti. Mazkur fandaatrot-muhitni ifloslantiruvchi moddalarning tashlamalari, oqovalari paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni yoki xizmatlar ko‘rsatishni amalga oshiruvchi tashkilotlar, yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatishning ekologik meyorlari loyihalarini ishlab chiqish va kelishish tartibini to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.

Fan va texnikaning rivojlanishi va yangi texnologiyalarning ishlab chiqarishda keng joriy etilish natijasida insonning tabiatga ko‘rsatayotgan ta’siri (antropogen ta’sir) jadallahib bormoqda. Inson va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar murakkablashib, ushbu ta’sir tabiiy omillar bilan qiyoslanadigan darajaga yetdi. Shuning uchun atrof muhitni muhofaza qilish hozirgi davrning eng dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Biosferada antropogen ta’sir qilish shu darajaga yetib bordiki, yer yuzida ham tabiiy o‘zgarishlar ro‘y berib ba’zi mintaqalarda hayot kechirish amri mahol bo‘lib qoldi.

### **Fanning maqsad va vazifalari**

“Ekologik me’yorlash” fanining asosiy maqsadi sanoat korxonalari faoliyati natijasida hosil bo‘layotgan tashlamalar, oqovalarning manbalarini, chiqindilarning paydo bo‘lishi va joylashtirilishini xatlovdan o’tkazish, tashlamalar, oqovalar, chiqindilarning paydo bo‘lishi va joylashtirilishini me’yorlashtirishdan iborat.

“Ekologik me’yorlash” fanining vazifasi bo‘lajak mutaxassislarda olgan bilimlarini kelgusida hozirgi zamom taraqqiyot bosqichida sanoat korxonalarida hosil bo‘layotgan chiqindilarni meyorlashtirish hamda ularni nazorat qilishning yangi tizimlarini amaliyotda qo‘llay olishlarini ta‘minlashdir.

### **Fan bo‘yicha talabalarning bilimi, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar**

“Ekologik me’yorlash” o‘quv fanining o‘zlashtiish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr;

Ekologik meyorlar loyihalarini ishlab chiqish, ifloslantiruvchi moddalarni tashlamalarini atmosferaga chiqarishning yo‘l qo‘yiladigan cheklangan ekologik meyorlar loyihalarini ishlab chiqish, suv havzalari sathida va yer relyefida

ifloslantiruvchi moddalarning yo‘l qo‘yiladigan cheklangan tashlamalarining ekologik meyorlari loyihalarini ishlab chiqish, chiqindilarning paydo bo‘lishi va joylashtirilishining ekologik meyorlari loyihalarini ishlab chiqish, atrof-muhitni ifloslantiruvchi moddalar tashlamalari, oqovalari manbalarini, chiqindilarning paydo bo‘lishi va joylashtirilishini xatlovdan o‘tkazish materiallarini ko‘rib chiqish, ekologik meyorlar loyihalarini rasmiylashtirish, ekologik meyorlar loyihalarini ko‘rib chiqish muddatlari va ularni kelishish tartibi, ekologik meyorlar loyihalarining amal qilish muddatlari kabi bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishi kerak. Qo‘yiladigan vazifalar o‘quv jarayonida bakalavrlearning ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlar va mustaqil ta’limda faol ishtirok etishi, adabiyotlar, jumladan internet tarmog‘i ma’lumotlari bilan mustaqil ishlashi va o‘qituvchi kuzatuvida mustaqil ta’lim olishi bilan amalga oshadi.

### **Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi**

Ekologik me’yorlash fanio‘z ishi faoliyati davomida sanoat tarmoqlarida ekologik boshqaruva asoslari va amaliyoti, sanoat chiqindilarini tozalash texnologiyalari, ekologiya, maishiy va sanoatchiqindilarini utilizatsiya qilish, maishiy va sanoat chiqindilarini yig‘ish va saqlash, ma’lum darajada iqtisod, matematika, informatika va boshqa qator fanlar bilan ham chambarchas bog‘liq bo‘lib bu fanlardan ko‘pgina izlanish uslublarini va qisman asosiy tushuncha va atamalarni qabul qilgan va ularning ma’lumotlari va uslublariga tayangan holda ish ko‘radi. Shuning uchun Dasturda rejalshtirilgan vazifalarni to‘liq o‘zlashtirish uchun yuqorida qayd etilgan fanlardan yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish talab etiladi.

### **Fanning ishlab chiqarishdagi o‘rni**

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlik hamda atrof muhit muhofazasini ta’minlash, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini rivojlantirishning muhim omilidir. Ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlik hamda atrof muhit muhofazasini ta’minlash bilan uzviy bog‘likdir.

### **Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

Fanni o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, jumladan quyidagi interaktiv uslublardan, jumladan muhokama-munozara, jamoaviy muhokama yoki muammolar ro‘yxatini tuzish, vaziyatni o‘rganish, tahlil qilish, bahs yoki munozaralar olib borish, tanqidiy fikrlash, rolli o‘yinlar, kichik guruhlarda ishlash, aqliy hujum, klaster (tutam, bog‘lam), baliq skeleti, FSMU, bumerang, skarabey, kaskad, Veer, pinbord, “T-sxema”, delfi, blitz-so‘rov, “Nima uchun”

texnologiyalari, ma'ruza-anjuman texnikasi, BBXB (Bilaman, bilihni xohlayman, bilib oldim), konseptual va insert jadvallaridan keng foydalaniladi.

Fan bo'yicha ma'ruza matnlarini tayyorlashda chet mamlakatlar, jumladan Hamdo'stlik mamlakatlarida yangi chop etilib. "Internet" tizimi orqali tarqatilgan elektron darsliklar, o'quv qo'llanmalar va ma'ruza matnlaridan foydalaniladi. Shuningdek, ma'ruzalarni o'tishda elektron ma'ruzalardan, mavzularga mos mul'timediali slaydlar va videofil'mlardan foydalanish ko'zda tutiladi.

Amaliy mashg'ulotlarda elektron mashqlar va masalalar to'plamlaridan, kompyuterlar yordamida fan bo'yicha kompyuter o'yinlari, test savol-javoblari, laboratoriya mashg'ulotlarida esa qurilmalar va jihozlarning hamda texnologik jarayon kechishining kompyuterdag'i elektron modellaridan, laboratoriyalardan foydalaniladi.

**Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.** Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda o'rganishni nazarda tutadi.

**Tizimli yondoshuv.** Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inalarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

**Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv.** Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

**Dialogik yondashuv.** Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

**Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish.** Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

**Muammoli ta'lim.** Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob'ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

#### **Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash**

- kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

**O'qitishning usullari va texnikasi.** Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

**O'qitishni tashkil etish shakllari:** dialog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

**O'qitish vositalari:** o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

**Kommunikatsiya usullari:** tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o‘zaro munosabatlar.

**Teskari aloqa usullari va vositalari:** kuzatish, blits-so‘rov, oraliq va joriy, yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o‘qitish diagnostikasi.

**Boshqarish usullari va vositalari:** o‘quv mashg‘uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko‘rinishidagi o‘quv mashg‘ulotlarini rejalshtirish, qo‘yilgan maqsadga erishishda o‘qituvchi va tinglovchining bирgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg‘ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

### **“Ekologik me’yorlash”fanidan mashg‘ulotlarning mavzular va soatlar bo‘yicha taqsimlanishi:**

**IV-kursning VIII-semestri** davomida o‘rganadilar. Mashg‘ulotlar tarkibi va ularga ajratilgan vaqt jadvalda keltirilgan.

#### **Ma’ruza mashg‘ulotlari**

<b>T/r</b>	<b>Mavzular nomi</b>	<b>Soat</b>
1.	Kirish. Ekologik me’yorlash faniga kirish	2
2.	Ekologik meyorlash loyihalarini ishlab chiqish tartibi	2
3.	Ifloslantiruvchi moddalar tashlamalarini atmosferaga chiqarishning yo‘l qo‘yiladigan cheklangan ekologik meyorlari loyihalarini ishlab chiqish	2
4.	Paydo bo‘ladigan va atmosferaga chiqariladigan ifloslantiruvchi modda miqdorlarini aniqlashning hisoblash uslublari	2
5.	Suv havzalari sathida va yer relyefida ifloslantiruvchi moddalarning yo‘l qo‘yiladigan cheklangan tashlamalarining ekologik normativlari loyihalarini ishlab chiqish	2
6.	Chiqindilarning paydo bo‘lishi va joylashtirilishining ekologik normativlari loyihalarini ishlab chiqish	2
7.	Atrof-muhitni ifloslantiruvchi moddalar tashlamalari, oqovalari manbalarini, chiqindilarning paydo bo‘lishi va joylashtirilishini xatlovdan o‘tkazish materiallarini ko‘rib chiqish	2
8.	Ekologik normativlar loyihalarini rasmiylashtirish	2
9.	Ekologik normativlar loyihalarini ko‘rib chiqish muddatlari va ularni kelishish tartibi	2
10.	Ekologik normativlar loyihalarining amal qilish muddatlari	2
<b>Jami:</b>		<b>20</b>

#### **“Ekologik me’yorlash»fani bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlari**

<b>T/r</b>	<b>Amaliy mashg‘ulotlar mavzulari</b>	<b>Soat</b>
------------	---------------------------------------	-------------

1.	Suyultirilgan uglevodorod gazlarining zichligini aniqlash	2
2.	Atmosferaga ajraladigan va chiqariladigan ifloslantiruvchi moddalarning massasini aniqlash (Asfaltobeton tayyorlashda)	2
<b>Jami:</b>		<b>4</b>

Ekologik me'yorlash fani bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlari o'quv rejada  
rejalashtirilmagan

### **Mustaqil ta'lim tashkil etishning shakli va mazmuni**

**Mustaqil ta'limning maqsadi** – talabalar o'qituvchi rahbarligida o'quv jarayonida olgan bilim va ko'nikmalarini darsliklar, o'quv qo'llanmalar, o'quv uslubiy majmualar, internet ma'lumotlari, o'quv-vizual va multimedia materiallari yordamida mustahkamlaydilar.

### **Mustaqil ish mavzularining nomi**

<b>Nº</b>	<b>Mavzular nomi</b>
1.	Sanoat korxonalarida hosil bo'layotgan atmosferani ifloslantiruvchi tashlamalarning ruxsat etilgan chegaraviy meyorini ishlab chiqishning ahamiyati. mavzusi bo'yicha <i>referat</i> yozish
2.	Sanoat korxonalarida hosil bo'layotgan oqova suvlarning ruxsat etilgan chegaraviy meyorini ishlab chiqishning ahamiyati. mavzusi bo'yicha <i>referat</i> yozish
3.	Sanoat korxonalarida hosil bo'layotgan qattiq sanoat chiqindilarning ruxsat etilgan chegaraviy meyorini ishlab chiqishning ahamiyati. mavzusi bo'yicha <i>referat</i> yozish

### **Dasturning informatsion- uslubiy ta'minoti.**

Mazkur fanni o'qitish jarayonida O'zbekiston Respublikasining Ekolgiyaga oid qonunlari, kodekslar, Prezident Qarorlari va Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, chet el va Respublikamizda nashr etilgan adabiyotlar, elektron adabiyotlar, texnik jihozlar, turli slaydlar, ilmiy jurnallardagi maqolalar, ma'ruza matnlari, fan bo'yicha o'quv-uslubiy majmualar hamda Internet materiallaridan foydalilanidi.

### **Fan bo'yicha talabalar bilimini nazorat qilish**

Talabalar bilimini nazorat qilish Oliy va o‘rta maxsus ta’lim Vazirligi tomonidan tavsiya etilgan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to‘g‘risida”gi Nizom (Nizom O‘z.R. OO‘MTVning 2009 yil 11 iyundagi 204-sen buyrug‘i bilan tasdiqlangan va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009 yil 10 iyulda 1981-sen bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan. O‘z.R. OO‘MTVning 2010 yil 25 avgustdagi 333-senli buyrug‘i bilan Nizomga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritilgan hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010 yil 26 avgustda 1981-1-sen bilan davlat ro‘yxatidan qayta o‘tkazilgan) asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Ushbu Nizomga muvofiq fan bo‘yicha o‘quv semestri davomida uch turdag, ya’ni joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar o‘tkaziladi.

*Joriy nazorat* - fan mavzulari bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash maqsadida laboratoriya, amaliy mashg‘ulotlar va mustaqil ta’lim topshiriqlari buyicha. og‘zaki so‘rov, test o‘tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o‘tkaziladi.

*Oraliq nazorat* – semestr davomida modulli tizim asosida o‘quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o‘z ichiga olgan) bo‘limi tugallangandan keyin, talabaning bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash maqsadida yozma, og‘zaki, test shaklida o‘tkaziladi. Oraliq nazorat bir semestrda ikki (yoki bir) marta o‘tkaziladi va shakli (yozma, og‘zaki, test va hokazo) hamda soni o‘quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi

*Yakuniy nazorat* – semestr yakunida muayyan fan bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni talabalar tomonidan o‘zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan “Yozma ish” yoki “Og‘zaki” shaklida o‘tkaziladi. Ilmiy Kengash qarori bilan yakuniy nazorat og‘zaki, test va boshqa shakllarda ham o‘tkazilishi mumkin.

Fan bo‘yicha talabalar bilimini nazorat qilish.

Talabalarning fan bo‘yicha o‘zlashtirishini aniqlash uchun quyidagi baholash turlari o‘tkaziladi:

*Oraliq baholash (OB)* - semestr davomida talabaning fan o‘quv dasturini tegishli tugallangan bo‘lim(lar)ini o‘zlashtirishini baholash usuli. OB soni (bir semestrda 2 tadan oshmasligi lozim) va shakli (suhbat, yozma ish, og‘zaki so‘rov, test o‘tkazish, kollokvium, hisob-grafika ishi, nazorat ishi, kurs ishi, kurs loyixasi, ijodiy topshiriq va hokazo) fan xususiyati va unga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

*Yakuniy baholash (YAB)* - semestr yakunida talabaning muayyan fan bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishini baholash usuli. U asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan yozma ish, og‘zaki so‘rov, test, ijodiy ish va boshqa shakllarda o‘tkaziladi.

Talabaning fan bo‘yicha o‘zlashtirishini baholashda quyidagi namunaviy mezonlar tavsiya etiladi:

5 (a’lo) baho:

xulosa va qaror qabul qilish;  
ijodiy fikrlay olish;  
mustaqil mushohada yurita olish;  
olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish;  
mohiyatini tushunish;  
bilish, aytib berish;  
tasavvurga ega bo‘lish.

4 (yaxshi) baho:  
mustaqil mushohada yurita olish;  
olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish;  
mohiyatini tushunish;  
bilish, aytib berish;  
tasavvurga ega bo‘lish.

3 (qoniqarli) baho:  
mohiyatini tushunish;  
bilish, aytib berish;  
tasavvurga ega bo‘lish.

2 (qoniqarsiz) baho:  
dasturni o‘zlashtirmaganlik;  
fanning mohiyatini bilmaslik;  
aniq tasavvurga ega bo‘lmaslik;  
mustaqil fikrlay olmaslik.

## **ADABIYOTLAR**

### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Vazirlar Mahkamasi Qarorlari**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasiningning tabiatni muhofaza qilish va ekologiyaga oid Farmonlari, Qarorlari va Farmoyishlari.

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. Зайцев В.А. “Промышленная экология” учебное пособие М-. 2000 й.
2. Richard O., Mines Jr. Environmental Engineering: Principles and Practice. Willey Blackwell. USA 2014.-P. 667.
3. Dixon Thompson. Serena Van Bakel. A practical Introduction to Environmental on Canadian Campuses.
4. С.В. Макаров. Т.В. Гусевю «Экологический менеджмент». Учебное пособие, М..Химия в России. 2003 г.
5. Musayev M.N. Sanoat chiqindilarini tozalash texnologiyalari asoslari.: O‘zbekiston faylasuflari jamiyati nashriyoti. 2011 y. 180 b.

## Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2016. – 56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagи ma'ruza 2016 yil 1 dekabr. -T.: "O'zbekiston" NMIU, 2016.-48 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.. "O'zbekiston" NMIU, 2017.-488 6.
4. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Xarakatlar strategiyasi to'g'risida. - T.:2017 yil 7 fevral, PF-4947-sonli Farmoni.
5. Положение о порядке разработки и согласовании проектов экологических нормативов. Утверждено приказом Кабинета Министров РУз от 21 января 2014 года №14.
6. «Положение о государственной экологической экспертизе в Республике Узбекистан». Приложение № 1 к Постановлению Кабинета Министров РУз от 31 декабря 2001 г. №491. Ташкент.
7. Постановление Кабинета министров РУз №258 от 04.09.2012 г. «Об утверждении положения о порядке сдачи, сбора, осуществления расчетов, хранении и транспортировки отработанных технических масел». Ташкент
8. 180 14 001. «Спецификация и руководство по использованию систем экологического менеджмента». 180, 1996
9. 180 14 010. «Основные принципы экологического аудита - Аудит».
10. 180 14 011 Процедуры - часть 1: Аудит системы экологического менеджмента.
11. 180 14 012 Квалификационные критерии для экологических аудиторов.
12. С.В. Макаров, Т.В. Гусев «Экологический менеджмент» - Химия в России: 2003.
13. М. Мескон «Основы менеджмента» - М.: «Дело», 1995. 14. С.В. Макаров, Т.В. Гусев «Использование экологического аудирования в практике производственной и территориальной природоохранной деятельности » - Химия в России: 1997, № 12

## Internet saytlari.

1. <http://www.environment.ru>.
2. <http://www.ecologye.ru>.

3. http.[www.environ.com](http://www.environ.com).
4. http.[www.ecolog.com](http://www.ecolog.com).
5. http.[www.clin.prod.com](http://www.clin.prod.com).
6. http.[www.ts-ecologyes](http://www.ts-ecologyes)